

IBRAYIM YUSUPOV SHE'RLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDA MUALLIF BADIYATINI SAQLAB QOLISH MUAMMOSI

*Sobirov Bekzod Nizomboy o'g'li, Innovatsion
texnologiyalar universiteti assistent o'qituvchisi*

THE PROBLEM OF PRESERVING THE AUTHOR'S ART IN THE TRANSLATION OF IBRAYIM YUSUPOV'S POEMS INTO UZBEK

*Sobirov Bekzod Nizomboy ugli, Assistant Lecturer at the
University of Innovative Technologies*

ПРОБЛЕМА СОХРАНЕНИЯ АВТОРСКОГО ХУДОЖЕСТВА В ПЕРЕВОДЕ СТИХОВ ИБРАИМА ЮСУПОВА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

*Собиров Бекзод Низомбой оглы, ассистент
преподаватель Университета инновационных технологий*



[https://orcid.org/
0009-0002-8135-5534](https://orcid.org/0009-0002-8135-5534)

e-mail:
sobirovbekzod@nukusii.uz

Annotatsiya: Maqolada she'riy matn tarjimasida muallif badiyatini saqlab qolish muhim omil ekanligi Ibroyim Yusupov ijodi misolida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, badiiy tarjimada tarjimon mahorati muhim rol o'ynashi, tarjimada milliy koloritni ochib bera olish chinakam badiiy mahorat ekanligiga dalillar keltirilgan

Kalit so'zlar: Tarjima, badiiy mahorat, adabiy aloqalar, tarjimon mahorati, badiiylik, estetika, tahlil, poetik idrok, milliy kolorit.

Аннотация: В статье научно и теоретически обосновано, что сохранение художественности автора является важным фактором при переводе поэтического текста на примере творчества Ибрагима Юсупова. Также приводятся доказательства того, что мастерство переводчика играет важную роль в художественном переводе, умение раскрыть национальный колорит в переводе является подлинным художественным мастерством.

Ключевые слова: Перевод, художественное мастерство, литературные связи, мастерство переводчика, художественность, эстетика, анализ, поэтическое восприятие, национальный колорит.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical foundation for the importance of preserving the author's artistic style in the translation of poetic texts, using the works of Ibroyim Yusupov as an example. Additionally, it presents evidence that the translator's skill plays a crucial role in literary translation, and that the ability to convey national color in translation is a true testament to artistic mastery.

Keywords: Translation, artistic skill, literary connections, translator's expertise, artistry, aesthetics, analysis, poetic perception, national color.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tili, hayot tarzi jihatidan bir-biriga yaqin tillardan tarjima qilish qator yengilliklarga ega bo'lib, turli til guruhlariga kiradigan mutlaqo o'zga, dini va urf-odatlariga bir-biriga yaqin bo'lmagan xalqlar tilidan tarjimaga nisbatan birmuncha oson. Shunga qaramay

tarjimashunoslikda noto'g'ri bir tushuncha keng tarqalgan, go'yoki, uzoq tillardan tarjimaga qaraganda yaqin tillardan tarjima qiyinroq. Bunga sabab sifatida esa har bir tilda mavjud, lekin, shaklan bir xil bo'lsa-da, mazmun jihatidan bir-biridan uzoq so'zlar soxta ekvivalentlar ko'rsatiladi, ular har qanday tarjimani ham chalg'itish, tarjima

matniga o'tib qolishi va asliyatdagi vazifasini bajarmasligidan tashqari noo'rin qo'llanilgani tufayli muallif fikri, asar mazmunini o'zgartirish, buzishi mumkin. Taniqli o'zbek tarjimashunos olimi G'.Salomovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovar: "Yaqin tillardan tarjima qilishda "soxta ekvivalentlar"ning tarjimonga pand berish hollari aslida mutarjimning orginal tilini yetarli darajada bilmasligi tufayli kelib chiqadi"[1.133]. Bizda badiiy tarjimaning yaqin tillardan tarjima sohasi yetarli darajada rivojlanmagan, uning qoida va prinsplari ishlab chiqilmagan, bu soha nazoratdan bir qadar chetda qolgan. Shundan, bu borada tarjimonlar ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar gabilida ish tutib, o'zlari xohlagan usulida tarjima qilmoqdalar. Bu sohaga professional tarjimonlar qolib, ko'pincha tasodifiy kishilarning qo'l urushi o'zbek tarjimashunosligidagi ana shu e'tiborsizlik-xo'jasizlikdan bo'lsa kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Ilmda "g'alati mashhur" degan ibora, tushuncha mashhur. U aslida xato bo'lsa-da, mashhur bo'lib ketganligi uchun "to'g'ri" bo'lgan so'zlar, iboralar, tushunchalarga nisbatan qo'llanadi. Masalan, "avliyo" - "valiy" so'zining ko'pligi ekani holda, unga lar ko'plik qo'shimchasini qo'shib, "avliyolar" tarzida yozamiz, yoki "axbor" - xabarning ko'pligi bo'lsa-da, unga yana "ot" ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi va hakozo. Ba'zi so'zlarning ma'no o'zgarishi xususida ham shunday deyishimiz muki. Aytaylik, Xoliq yaratuvchi, maxluq - yaratilgan. O'tmishda ijobiy mazmunga ega bo'lgan "maxluq" so'zi hozirda salbiy ma'noga ega - u haqorat so'ziga aylanagan. Yoki "dorilomon" bugun tinch, osoyishta hayot ma'nosida ishlatamiz, holbuki, o'tmishda bu so'z tinchlik, osoyishtalik uyi, ya'ni u dunyo ma'nosida qo'llanilgan [2.215].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bizda yaqin tillardan tarjima qilish uchun til bilish shart emas degan yozilmagan qonun mavjudga o'xshaydi. Bunga turkman, qozoq, qirg'iz, ozarboyjon, tatar, boshqird, qoraqalpoq kabi qardosh tillarning hech qayerda maxsus o'rgatilmashligi ham sabab bo'layotgandir (oliy o'quv yurtlarida turkiy tillardan faqat turk tili o'qitiladi, qolgan turkiy tillarni faqat shu millat vakillari maktablarda o'qiydilar, o'zbeklarga ular

o'rgatilmaydi. O'zbeklar uchun bu tillardan darslik yoki o'quv qo'llanmasi ham, lug'atlar ham yo'q). Shuning uchun qardosh tillardan tarjima qilayotganlar ro'yxatiga ko'z tashlasak, ularning ko'pincha ikki xalqqa aloqador kishilar ekanligiga guvoh bo'lamiz (masalan, Nosir Fozilovning qozoq, Tursunboy Adashboyevning qirg'iz, Muzaffar Ahmadning qoraqalpoq, Abdulmo'min Jumayevning turkman xalqiga u yoki bu darajada bog'liqligi bor). Bu sohada Mirtemirday professional tarjimonlar kam. Birgina Ibroyim Yusupov asarlari tarjimonlarini olaylik, Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmad, Mirza Kenjabek, Abdumo'min Jumayevlardan birortasi qoraqalpoq tili bo'yicha mutaxassis emas. Shoir, adib, tarjimashunos olim J. Sharipovga Xorazmda tug'ilib o'sgani, binobarin, Xorazm xalqi madaniyatining qoraqalpoq madaniyatiga boshqa o'zbeklarga nisbatan bir qadar yaqinligi qo'l kelgan bo'lsa, M.Ahmad qoraqalpoq farzandi bo'lgani uchun qoraqalpoq tili bilan tanish. [3.84].

Ma'lumki, yaqin tillardan tarjimada ko'plab so'z va iboralar, satrlar, hatto butun-butun bandlar tarjimaga deyarli o'zgarishsiz ko'chishi mumkin. Har yaxshini yomoni bor deganlaridek, bu qulaylikning bir salbiy jihati ham mavjud - u ham bo'lsa, tarjimonni ijodiy izlanishdan qaytarishi, erinchoq qilib qo'yishi. Bunda ikki holat kuzatiladi: birinchisi-ko'plab so'zlar, jumlar, misralar va bandlarning tarjimaga aynan ko'chganini ko'rgan tarjimonlar bu imkoniyatni suiiste'mol qilib, qolganini ham o'zicha saqlab qolish yo'lidan boradilar va ayrim tushunarsiz so'zlarga matn ostida izoh berib ketaveradilar. Natijada tarjimada izoh ko'payib ketadi. Masalan Ibroyim Yusupov she'rlaridan qilingan tarjimalarda 300 ga yaqin izoh bergan. "Tabiiyki izohlarning ko'p berilishi tarjima qilingan asarning o'qilishini qiyinlashtiradi" [5.48]. Holbuki, bu asliyat emas, tarjima. Agar shoir she'rlarini qoraqalpoqcha asliyatda nashr etganimizda ham shuncha yoki sal ko'proq izoh berilsa kerak. Ikkinchisi - bizda qardosh tillardan tarjimaga ko'p hollarda ijodiy ish deb baho berilmaydi, balki unda tabdil darajasida munosabatda bo'linib, shunchaki asliyatdan tarjima tiliga o'tkazib qo'ya qolish va ba'zi bir notanish so'zlarni tushunarlisi bilan almashtirish deb o'ylashadi. Shuning uchun bunday tarjimalarga ortiqcha tayyorgarliksiz kirishiladi va natijada uzoq tillardan tarjimaga ko'ra yaqin tillardan tarjimada

xatolar bisyor bo'ladi. Rus tarjimashunosi M.Rilskiy uzoq tillardan tarjima qilishdan ko'ra, yaqin tillardan tarjima qilishning qiyinligini alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Chunki uzoq tillardan tarjimaga tarjimon katta tayyorgarlik bilan kirishadi, aslyatdagi har bir so'z va jumlani teran tahlil qilib, mag'zini chaqadi, ma'no qirralarini salmoqlab ko'radi. Yaqin tillardan tarjimada esa tarjimon bu mas'uliyatni unutib, bir qadar hotirjam bo'ladi. Natijada sirtidan o'xshash, lug'atsiz ham tushunsa bo'ladiganday ko'rinadigan so'z, ibora, maqol-matallarga aldanib, ko'plab qo'pol xatolarga yo'l qo'yanini bilmay qoladi. Qardosh tillardan tarjimada kelib chiqadigan xatoliklar sababi asosan 3 ta deyish mumkin:

1. Aslyat tilini yaxshi bilmaslik;
2. O'xshash so'z, ibora va tushunchalarning tarjimonni aldab qo'yishi;
3. Beparvolik, mas'uliyatsizlik, faromushxotirlik orqasida bilmay xatoga yo'l qo'yish.

Qadim zamonlardan san'at inson manfaat-ehtiyojlarini o'rganishga xizmat qiladi. Istak hamda imkon orasida kuzatiladigan farq uning qamrovini belgilaydi. O'z navbatida, har bir adabiy talqin odamzod psixikasiga singdirilgan "borliq jumbog'i"ni xoslanganlik darajasida yechishga harakat qiladi. Aniqrog'i, ifoda xususiyati va estetik tanlov chegarasi shuni taqozo etadi. Shu ma'noda, adabiy tafakkur tizimi falsafiy mushohada mantiqiy taraqqiyotini tugal va yaxlit, tuyg'u va ong tutashuvini to'liq va batafsil, tasvir va ifoda o'tib turishini ixcham va siqiq tarzda akslantirish imkoniyatiga ega. Unda tasvir ruhoniyligi va tahlil ma'rifati bir-birini to'ldiruvchi mazmunga qorishadi. Muallif kechinma hosil qilgan poetik turtkini tasvirlar ekan, buni faqat bir maqsadda – kitobxonga ruhiy harakatni kuzatishga imkon berish niyatida amalga oshiradi. Unda ijodiy mohiyat yaxlitlikka erishadi:

Navoiy, Berdaqdar doston bitganda,
Bobur tarki vatan qilib ketganda,
Mashrab g'azallari faryod etganda,
Xayol surgan niyatiga yetganmi? [4.141].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Badiiy asar tizimli butunlik, tizim deganda esa qismlardan tarkib topgan bir butunlik tushuniladi. Bu yaxlitlik emas, lekin qismlar orasidagi aloqa shu qadar muhimki, bu aloqalarning yetarlicha anglanmasligi asarni

qisman, o'z mohiyatidan boshqacharoq tushunishga olib keladi. Butunga kiritilayotgan qism butun talabiga mos holda kiritiladi, qismlar orqali butun tushuniladi, qismning asl ma'nosi butun tarkibidagina ko'zga ko'rinadi. Demak, badiiy asarni o'qiyotgan odam, birinchidan, asardagi har bir qismni boshqa qismlar bilan aloqada, ikkinchidan, asarni butun holicha tasavvur eta olishi lozim. Deylik, katta romanning boshlanish qismidagi aniq unsur uning oxiridagi boshqa bir unsur bilan mazmunan aloqaga kirishadi, lekin bu aloqa bevosita emas, ya'ni, yozuvchi bu aloqaga hech qanday ishora qilgan emas. Biroq ularning har ikkisi butunning qismi bo'lganligi uchun ham butunning mazmun mohiyatini ochishda bu aloqa muhimdir. Badiiy asarga ijodiy yondashuv o'quvchi o'qish jarayonida ijodkor subyekting o'rnini egallab, uning ijod onlaridagi betakror ijodiy-ruhiy holatiga kira olsagina mavjuddir. Bunda o'quvchiga asarning o'zigina yordam berishi mumkin. Asar (sistem butunlik) ni tushunishning ko'pchilik e'tirof etgan qoidasi esa, butunni qism, qismni butun orqali tushunishdir. Konkret asar tuzilmasini butunlikning tashkillanishi, uni tashkil etayotgan unsurlar o'zaro aloqalari, ularning qay yo'l bilan butunlik hosil qilishini – aniq bilmasdan turib uning mazmun-mohiyatini anglash qiyin. Hatto, vaqti kelganda bittagina elementning e'tibordan chetda qolishi ham butunning mazmun-mohiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Zero, struktura mazmunning mantiqiy tashkillanishidirki, o'sha mantiqni o'zlashtirmasdan, badiiy asardagi mazmun jilolarini ilg'ash mushkul.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salomov G., Boboyev T. Tarjima san'ati. - T.: Adabiyot va san'at, 1973.
2. Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari. -Toshkent: Universitet, 1995.
3. Dilmanov I. Folklor aloqalari va badiiy tarjima. -Nukus: Bilim, 2007.
4. Ibrayim Yusupov, Sahro bulbuli. -Toshkent Adabiyot va san'at, 1994.-B.
5. Xolbekov M. O'zbekistonda tarjima va tarjimashunoslik//Xorijiy filologiya. №3, 2016 yil. –B.16.
6. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. 95-bet.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –T: "Fan". 2005. –B.27-28.